

**ISMJ JISMIGA MOS DOYRA SAN'ATINING QAHRAMON SAN'ATKORI**

**Jaxongir Kuchkarov**

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston musiqa san'atining darg'alaridan biri, doira cholg'usining eng moir ijrochisi, O'zbek san'ati va madaniyatining buyuk namoyondasi O'zbekiston halq artisti Qahramon Dadaev hayoti va san'at yo'lida bosib o'tgan ijodiy yo'li. O'zbek milliy raqs san'atiga qo'shgan xissasi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** doira, ansambl, "Bahor", ansambl, ijodkor, ijro, mahorat, cholg'u

**Аннотация:** В этой статье одна из отраслей музыкального искусства Узбекистана, искуснейший исполнитель на круговом инструменте, великий представитель узбекского искусства и культуры, Народный артист Узбекистана Каҳрамон Дадаев пойдет по пути жизни и искусство. тган творческий путь. Обсуждается вклад в узбекское национальное танцевальное искусство.

**Ключевые слова:** даира, ансамбль, «Бахор», ансамбль, создатель, исполнение, навык, инструмент.

**Annotation:** In this article, one of the branches of musical art of Uzbekistan, the most skillful performer on a circular instrument, a great representative of Uzbek art and culture, People's Artist of Uzbekistan Kakhramon Dadaev will follow the path of life and art. tgan creative path. The contribution to the Uzbek national dance art is discussed.

**Key words:** daira, ensemble, "Bakhor", ensemble, creator, performance, skill, instrument.



Doyraning urma zarbli soz sifatida xalqimiz hayotida tutgan o'rni ko'pchilikka ma'lumdir. Qo'shiqchilik, raqs, o'zbek musiqa cholg'ulari asboblari ansambli yoki orkesri

ijro san'ati borki, ular doirasiz ijro etilmaydi. Xalq orasida juda ommalashib ketgan san'at turlaridan biri doyrachilik san'atidir. Ana shu san'atning buyuk sohiblaridan biri – Qahramon Dadayevdir.

Ha, keyingi o'n yillik doira san'ati va uning rivoji xalqimizning sevimli san'atkori, Qahramon Dadayev nomi bilan bog'liq. Qahramon Dadayev doira san'atining haqiqiy fidokori edi.

Qahramon Dadayev Toshkentning Eski Jo'va mahallasida 1936 yilning 15 dekabrida tavallud topgan. Padari buzrukvor Qosim Dadayev oilasida san'at ardoqlanib, unga havas va mehr kuchli bo'lsa-da, oila a'zosi, qarindosh-urug'lari orasida san'atkor yo'q edi.

Oila san'atga daxldor bo'lmasada, bo'lg'usi san'atkor dunyoga kelgan mahallada san'atkorlar ko'p edi. Qahramonlarning shundoq devor-darmiyon qo'shnisi o'zbekning mashhur hofizi Jo'raxon Sultonov edi...va boshqa qo'shnilar Ashurali, Axmadjon otalar mashhur surnaychilar, doirachi Temur aka, Jo'rabek aka Saydaliyev butun Toshkentda dong taratgan tanburchilar edilar. Yosh Qahramon mana shu taxlit san'atkorlar mahallasida o'sib-ulg'aydi. Jo'ravoz Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqovlar davralarida choy tashib xizmatda bo'ldi.

Farzandining san'atkorlarga hurmati, san'atga ixlosini payqagan Qosim aka bu oilaning yaqini, o'z do'stining singlisi Muhabbatxonga maslahat soladi: "Qahramon san'at ahli davrasidan beri kelmay qo'ydi, ihlosi sidqidildan bo'lsa, yoshligida unga hunar o'rgatsak ma'qul bo'larmidi?!" O'sha davrlarda "O'quvchilar san'at saroyi" yoshlar yetakshisi Muhabbatxon Qahramonning doira san'atiga moyilligini ilg'aydi va bolani mashhur Usta Olim Komilovning iste'dodli shogirdi To'ychi Inog'omov qo'liga topshirishni maslahat beradi. Shunday qilib, Qahramon Dadayev o'sha davrlarda Toshkentda, shahar markazidagi "O'quvchilar san'at saroyi"ning faol a'zosiga aylanadi. Bu yerda u barcha tengdoshlari kabi san'at sirlarini qunt bilan o'rganadi. Qahramonning san'at dargohiga kirib kelishi shu taxlit 1946 yildan boshlangan edi. Doyra sirlarini o'rganishga astoydil bel bog'lagan o'spirin, o'quvchilar saroyida nimaiki bayram tadbirlari, yig'in-uchrashuvlar o'tmasin, doyrada o'z ijrosi bilan chiqishlar qila boshladi. Ustozi To'ychi aka shogirdidagi iste'dod uchqunini alangalanib borayotganligini payqagach, uni Toshkentdagি Koreografiya bilim yurtida dars beruvchi G'ofur Inog'omovga tavsiya qiladi.

San'atkor Inog'omovlar panohida tarbiya topayotgan yosh sozanda bu bilim yurtida ilk bor o'zbek raqs san'ati malikasi Mukarrama Turg'unboyeva bilan tanishadi. Ana shu tanishuvlar bo'lajak san'atkorning ko'pgina yutuqlarni ancha erta qo'lga kiritishiga sabab bo'ldi. "Doyra darsi" o'tildi. Mukarrama Turg'unboyeva ham ana shu oliy maktablarda raqsdan dars bergenlar. Shu darslarda Mukarrama opaga Qahramon aka doyrada jo'r bo'lganlar.<sup>20</sup>

Yosh Qahramon 1953 yilgacha o'quvchilar saroyiga qatnar, ayni paytda poytaxt musiqa bilim yurtida ustozlardan san'at sirlari bo'yicha tahsil olardi. 1953 yili u ushbu bilim yurtida Mukarrama Turg'unboyeva bilan Roziya Karimova guruhlarida jo'rnavoz sifatida xizmat ko'rsata boshladi.

<sup>20</sup> Temur tuzuklari" – Toshkent: "Sharq" N.M.A.K Bosh tahririyyati, 2005 y.-176 b.

O‘zbek estradasi qoshida kichik raqs guruhi tashkil etiladi. Unga Mukarrama Turg‘unboyeva rahbar etib tayinlanadi. Ushbu guruuh tarkibida 10 raqqosa bo‘lib, ularga yolg‘iz sozanda Qahramon Dadayev hamroh, o‘z doyrsasi bilan ularni, raqsga chorlar edi. Yosh, g‘ayratli, raqqosalarning safi tobora kengayib, ixtisoslashib, takomiliga yeta boshladi.

1955 yilda Polsha davlatida V jahon yoshlar festivali bo‘lib o‘tadi. Unda O‘zbekistondan “qizlar guldaстasi” – tanlangan raqqosa san’atkorlar guruhi ilk bor ishtirok etadi. Xalqaro festivalda yosh raqqosalardan Bernora Qoriyeva, Tamara Yunusova, Qunduz Mirkarimova, Raisa Hojisaidova, Flora Kaydani kabi raqqosalar o‘z ijro mahoratlari bilan festivalning oltin medalini olish sharafiga tuyassar bo‘ladilar. Mukofot sovrindorlari orasida 19 yashar doyrachi Qahramon Dadayev ham bor edi. Bu yuksak mukofot bo‘lajak mashhur san’atkorning yorqin istiqbolidan qutlug‘ nishona edi.<sup>21</sup>



Yosh Qahramonning iste’dodi tobora ochila borib, keng imkoniyatlarini namoyon qila boshladi. U chin dildan san’at ummoniga sho‘ng‘ib, doyrada hali ustozlari tomonidan ijro etilmagan usul va sadolarni kashf qildi.

<sup>21</sup> Shodmonov Nafas. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000 y. – 69 bet.

Qadimiy va yangi zamонавиу куylarga ilk raqslar, ayni paytda raqslarga mos kuyohanglar tanlashda u Mukarrama Turg'unboyeva bilan hamkorlik ishiga kirishdi. O'sha kezlarda Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilovlar raqslar sahnalashtirishda yetakchi edilar. 1955 yilga kelib, Turg'unboyeva rahbarligidagi kichik raqs guruhiga O'zbekistonidagi ko'pchilik talantli raqqosayu sozandalar birlashib, jamoaga aylanib ulgurgan edi. 1957 yili bu guruhga "Bahor" nomi berilib, el orasida ilk bor "Bahor" ansambl degan yangi nom paydo bo'ldi. O'sha yili o'zbek estradasi tarkibidagi bu ansambl "Bahor" nomi bilan mustaqil guruhga aylanib, o'zbek filarmoniyasi tarkibida "Bahor" o'zbek xalq raqs ansambl tashkil topdi.<sup>22</sup>

"Bahor" ansamblida 40 kishidan iborat san'at fidoyilari faoliyat ko'rsata boshlashdi. Qayta tuzilgan yangi katta ansamblni ham Mukarrama Turg'unboyeva boshqardi. Bu san'at dastasining dovrug'i sekin-asta butun dunyoga taraldi.

Qahramon Dadayev qo'lida doira ila chayqalib, zarb berib turganini xayolga keltirganimizda beixtiyor xayolimizdan "Bahor" ansambl va sahnani to'ldirib raqsga tushayotgan go'zal raqqosa qizlar o'tadi. Raqs san'atida doira sozi asosiy rolni ijro etadi. Mukarrama opa oltin fondga kirgan mashhur raqlarni Qahramon Dadayev bilan birga sahnalashtirganlar. "Katta o'yin", "Pilla", "Uchrashuv", "Xavaskor" va boshqa ko'pgina raqs asarlari.

"Katta o'yin" raqsi raqqosa va doyrachilarning katta sinovi, imtihoni deyish mumkin. "Katta o'yin"- bu mакtab ichidagi alohida maktab. "Katta o'yin" maktabini o'taganlar san'atda mustaqil hayotga yo'llanma olganlar. Bu raqs ijrosi, usullarga ko'ra o'ta murakkab hisoblanadi. Sababi – usullar rang-barang, boy: "Ufori", "Soxta ufori", "Duchava", "Oqsatma", "Gul o'yin", "Shox" va "Charx"lar. Oyoq va qo'l harakatlariga juda boy bo'lgan raqs bu. Shunga yarasha usullar ham juda ko'p. "Katta o'yin"da harakatlar ko'p va shu harakatlarga – birdan biriga o'tish joylari nihoyatda murakkab.

Qahramon aka "Katta o'yin" raqsi usullarini nihoyatda mohirona ijro etganiar. Bu raqsda "G'oz suzish" harakati bor. Harakat boshida da'fatan doyra zarbi sadosi taqa-taq to'xtaydi. Doyra chertmagi to'xtaganda raqqosa qizlar shu usulni o'zaro harakatda bajarib ketishadi. Oyoq harakati bilan polni nazokat bilan tepib, doyra ritmni ushlab turgan xolda oldinga xarakatlahadilar.

To'rt takt davom etgan pauzadan so'ng Bu harakatga doyra ustasi tomonidan shunday munosib usul beriladiki, raqqosa qizlar ham g'oz suzish bilan kerilib, bir qatorda yon yo'rg'a harakati bilan sahnada "suzishadi". Sahna oxiriga borganda esa Qahramon aka "bak" beradilar.

Oksent bilan berilgan "BAK" tovushidan keyin birdaniga hamma raqqosa qizlar tomoshabinga yuz o'girishadi. Qahramon aka raqsni o'tish joylarini qoyilmaqom qilib chaladilarki, qizlar yayrab raqsga tushadilar. Masalan, bir joyda sekin chalinadi – ohista chertib-chertib, doyraning xalqalarini – shing'iroqlarini "silkitma" usulda chalib, juda chiroyli, alomat bezaklar berib, maromiga yetkazadilar. Shuning uchun ham biz Qahramon Dadayevni doyra san'ati zargari deymiz.

<sup>22</sup> Qodirov M. "Temuriylar davri tomosha san'atlari" monografiy. – Toshkent: "San'at" jurnali nashriyoti, 2007 y. – 126 b.

Keyinchalik Qunduz Mirkarimova sahnalashtirgan “Zang”, “Zardo‘z tikuvcchilar” asarlariga Qahramon aka jon ato etganlar.<sup>23</sup>

Qahramon Dadayev raqs san’atidan tashqari ikkita, uchta, to’rtta doira cholg’usida o’zi yaratgan yakkaxon ijod kompoziyalari bilan ham tomoshabinlar, muxlislar oldida ishtirot etar edi. Bu ijod namunalariga “Qo’sh doyira”, “Uch doira” va boshqa asarlar kiradi.

Qahramon Dadayev “Bahor” ansambl bilan Polsha, Chexoslovakiya, Belgiya, Shvetsiya, GDR, GFR, Norvegiya, Italiya, Malta, Jazoir, Tunis, AQSH, Kanada, Meksika, Fransiya, Jugoslaviya, Laos, Ispaniya, Kipr, Afg'oniston, Yaponiya, Argentina, Finlyandiya, Xitoy kabi 60 dan ortiq mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lgan. Yakkaxon sifatida butun er yuzini ayianib chiqqan va doira cholg’usi dovrug'i va uning zarvorli tovushini butun dunyoga tanitdi.



Hozirda Qahramon Dadayev shogirdlarining son - sanog'i yo'q. O'zbekiston halq artisti, Davlat mukofotlari sovrindori ulug' san'atkor doira cholg'usining qahramoni Qahramon Dadayev.

Doira cholg’usi moxir ijrochisi, ko'plab doirachi shogirdlarning sevimli ustozи, el suygan sozanda Qahramon Dadayev 2013 yil 28 oktyabr kuni vafot etganlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Temur tuzuklari” – Toshkent: “Sharq” N.M.A.K Bosh tahririysi, 2005 y.– 176 b.
2. Shodmonov Nafas. Xoja Abdulqodir Marog'iy. – Toshkent, G. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000 y. – 69 bet.
3. Qodirov M. “Temuriylar davri tomosha san'atlari” monografiy. – Toshkent: “San'at” jurnali nashriyoti, 2007 y. – 126 b.
4. Abu Homid G'azzoliy. “Kimyoi saodat” – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2005 y. – 203-205 b

<sup>23</sup> Abu Homid G'azzoliy. “Kimyoi saodat” – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2005 y. – 203-205 b